

IQBOL MIRZONING GRADUONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Rajabova Nilufar Qadamboyevna

Qarshi davlat universiteti lingvistika:

o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada el suygan shoir Iqbol Mirzo ijodida uchraydigan graduonimlarning umumiy tavsifi haqida so‘z boradi. Graduonimlarga misollar keltirish uchun shoirning turfa ijod namunalariga murojaat qilingan.

Kalit so‘zlar: Graduonimiya, lug‘aviy graduonimiya, sinonimiya, antonimik ma’no, oppozitsiya.

Tilshunoslikda yana bir emotSIONalllikni oshiruvchi hodisa graduonimiyadir. Graduonimiya — darajalanish so‘zini tilshunoslik atamasi sifatida birinchilardan bo‘lib R.Safarova va “Sistem leksikologiya tezislari” mualliflari tomonidan qo‘llanilgan.

Lug‘aviy graduonimiyaning mohiyati bir necha so‘zning ma’lum bir belgining oz-ko‘pligiga qarab lug‘aviy ma’noviy qatorda tizilishida namoyon bo‘ladi. Lug‘aviy graduonimik qatorlar ko‘pgina hollarda alohida bir yetakchi so‘z (dominanta) atrofida birlashadi va lug‘aviy ma’no guruhlari oldiga qo‘yiladigan barcha talablarga to‘la-to‘kis javob beradi.

Graduonimik paradigma a’zolari esa sinonimik qator a’zolaridan farqli o‘laroq, aynan bir tushunchani emas, balki ma’lum tushunchani miqdoran darajalab ko‘rsatadi. Bunda miqdoriy belgi paradigma a’zolari o‘rtasida **ko‘payib yoki kamayib borish xususiyatiga ko‘ra darajalanadi**. Graduonimiya umumiy ma’noda ma’noviy darajalanish hodisasisidir. Graduonimiya bugungi kun hodisasi emas, balki necha asrlar ilgari adabiyotimizning buyuk allomasi A. Navoiy o‘zining tilshunoslik sohasiga bag‘ishlangan ikki til muhokamasi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ilk bor tilshunoslikda darajalanish hodisasi borligini **yig‘lamoq** fe’lining kuchayib borish darajasiga qarab o‘sib borishini aytib o‘tgan. Ya’ni yig‘lamoq masdar fe’lining yuzdan ortiq sinonimlarini sanam graduonimik holatda sanab o‘tgan.

Darajalanish hodisasini barcha so‘z turkumlari doirasida ko‘rishimiz mumkin. Masalan: Otlarda graduonimik qatorlar juda ko‘pdir buning sababi ular predmetni ifodalaydi. Predmet esa ma’lum bir belgilar majmuasi sifatida yuzaga chiqadi va otlarda belgi ma’nosи ulardagи ma’no tarkibining muhim tarkibiy qismidir. Shuning uchun o‘zbek tilida ko‘pchilik muayyan (konkret) otlar va bir qator mavhum

otlar graduonimik qatorlarni tashkil etadi. Xususan, numerativ so‘zlarda to‘la-to‘kis graduonimik munosabatlar asosida quriladi.

Mm—Sm—dm—metr—km (ko‘payib boorish tartibida)

Bo‘g‘im—barmoq—qarich—gaz (ko‘payib boorish tartibida)

Sifat so‘z turkumida ham graduonimik paradigmalar juda ko‘p uchraydi. Misol qilib rang-tus sifatlarini ko‘rishimiz mumkin:

Gulobi—pushti—qizg‘ish—qizil—qirmizi—ol—alvon (belgining ko‘payib boorish tartibida)

Sifat so‘z turkumi belgi bildiradi. Belgi bildiruvchi paradigma a’zolari o‘rtasida darajalanish hodisasi juda keng namoyon bo‘ladi. **Xunuk** leksemasi A. Hojiyevning sinonimlar lug‘atida quyidagicha berilgan:

Xunuk, badbashara, badburush, badqovoq, tasqara, bedavo, ta’viya, beo‘xshov, beso‘naqay, sovuq, badsurat, nadomat. (ko‘payib boorish tartibida)

Bu birlklarni darajalarda quyidagicha ifodalasak maqsadga muvofiq:

Sovuq, beo‘xshov, beso‘naqay, badburush, badqovoq, badsurat, xunuk, bedavo, tasqara, ta’viya.

Fe’l so‘z turkumida darajalanish qatorini quydagilar orqali misol qilishimiz mumkin ***Iljaymoq—tabassum qilmoq—kulimsiramoq—kulmoq—xandon otmoq—xoxolamoq—xandon otmoq (ko‘payib borish tartibida)***

Yig‘lamoq: Ingramoq—singramoq—yig‘lamsiramoq—siqtamoq—yig‘lamoq—o‘kurmak—hoy-hoy yig‘lamoq. (ko‘payib borish tartibida)

Buyuk mutafakkir bu so‘zlarning barchasini bir umumiyliz ixtirob chekmoq ma’nosi ostida birlashtiradi. Bunda ovoz chiqarmasdan ichdan yig‘lamoq (ingramoq)dan, ovoz chiqarib(hoy-hoy yig‘lamoq) gacha belgi darajasining oshib borishini ifodalab beradi. Graduonimiya va sinonimiya o‘zlarining asos belgilariga ko‘ra keskin farqlanadi. **Sinonimiya** ikki va undan ortiq leksema yoki frazemaning aynanligi, **graduonimiya** esa ikki va undan ortiq sememalarning semalaridagi gradatsiyali farqlanuviga tayanadi. Graduonimik paradigma a’zolari o‘rtasida miqdor belgining oshib yoki kamayib borishidan darajalanish hosil bo‘lganda, graduonomik paradigmanning 1- va oxirgi a’zosi o‘rtasida bilinar-bilinmas **antonimik ma’no** hosil bo‘ladi.

Kulba—hujra—uy—hovli—qasr—saroy—koshona

Uy leksemasining hajm jihatdan kichikdan kattaga qarab oshib borishi. Bunda kulba va koshona leksemalari o‘rtasida ***oppozitsiya*** borligini ko‘rish mumkin.

Quruq- nam –ho‘l – shalabbo sifatlarida ham gradionimiya hodisasi bo‘lib, belgi kuchayib borgan va quruq so‘zi bilan shalabbo so‘zi oppozitsiyada turibdi.

Badiiy ijodda graduonimlardan foydalanish o‘ta muhim hodisa sanaladi. Chunki shoirning qalbida jo‘s sh urgan tug‘yonlarini kuchayib yoki so‘nib borish holatlarini

yorqin tasvirlashda undan- da qulay vosita yo‘qdir. Tadqiqotimizning ushbu faslida Iqbol Mirzo she’rlarida qo‘llangan graduonimlarni tahlil qilish asosiy vazifadir. “*Sizni kuylayman*” *she’rlar to‘plamiga e’tibor qaratamiz*:

Birdan ehtirosga to‘ldingiz,

Yondingiz, kuydingiz, so‘ndingiz....

Iliyapti ummon, dengizlar,

Eriyapti ming yilllik muzlar... (“Mendan soviyapti”) 27- bet.

Ikkinchi misradagi **yondingiz - kuydingiz - so‘ndingiz** graduonimlari fe’l turkumiga oid bo‘lib, harakatning kuchlidan kuchsizga tomon borishi tartibida joylashgan. Bunda oshiq qizning jo‘shqin ehtirosga to‘lgan muhabbat tezda yongani, so‘ngra hovur pasayib, kuyish va so‘nish holatigacha borgani alamli tarzda o‘z ifodasini topadi. Xalqimizda “Tez yongan tez so‘nadi” degan maqolning poetik isboti sifatida ushbu misralar yaratilgandek.

Yondingiz - yuydingiz - so‘ndingiz

Ushbu graduonimiyada oppozitsiya mavjud. Ya’ni **yonmoq** fe’li **so‘nmoq** fe’li bilan antonimik juftlikni hosil qilgan.

Shorning “Yoningizda qolmoqchi edim” she’rida ikki his graduonimiyani kuzatishimiz mumkin. Birinchi misrada **alamim, hasadim, ginam**kabi mavhum otlar, uchinchi misradagi **Sog‘insang, o‘rtansang, yig‘lasang** fe’llari darajalanishni hosil qilgan. **Alam** - jismoniy qyynoq, azob va og‘riq, ruhiy azob, iztirob, qasd, o‘ch, qasos, g‘azab, nafrat qahr kabi ma’nolarni ifodalaydi. **Hasad** esa kimsaga xos unga tegishlinarsa fazilat va shu kabilarni ko‘ra olmaslik, xush ko‘rmaslik tuyg‘usidir. **Gina** esa biror kimsaga nisbatan dilda saqlangan xafalik, norozilik, kek, shikoyat, arz- hol. Ushbu graduonimlar ruhiy qyynoqning kuchayib borish tartibida joylashgan. Sog‘inish holati o‘rtanish va oxirida yig‘lash bosqichigacha ko‘tariladi.

Alamim, hasadim, ginam tufayli,

Ehtimol ustingdan kulmoqchi edim.

Sog‘insang, o‘rtansang, yig‘lasang mayli,

Men sening yodingda qolmoqchi edim (3-bet)

Shoir she’rlarida ruhiyatning ajib chizgilari mohir rassom singari tasvirlanadi.

Quyidagi she’rda beparvo yorga nisbatan alamlı iztirob va ta’kid aks etgan:

Milyon yilda meni yaratdi hayot,

Meni so‘rab, tog‘lar qator cho‘kdi tiz.

Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot,

Axir men bittaman, yagona, yolg‘iz. (“Yolg‘iz” she’ri 4- bet)

Bittaman, yagona, yolg‘izkabi graduonim leksemalarmiqdorning kuchayib ta’kidlanganini ko‘rsatadi. Bitta - dona sonni bildirgan leksema, yagona va yolg‘iz sifat so‘z turkumiga tegishli so‘zlardir. Yolg‘iz so‘zida miqdor ma’nosidan tashqari yolg‘izlikdan qiynalayotgan lirik qahramon tasviri ham bo‘rtib turadi.

“Go‘yo” nomli she’rida ham graduonimiyaning kuchayib borish darajasida kelganiga guvoh bo‘lamiz:

Shul irmoqning huzurida kim bo‘ldim?

To‘xtab qoldim, til tishladim, mum bo‘ldim.

Hasrat keldi, ko‘z yoshimga lim bo‘ldim,

Eski ko‘ngil endi to‘lmaydiganday.

To‘xtab qoldim, til tishladim, mum bo‘ldim ushbu graduonimiya fe’l turkumiga tegishli bo‘lib, harakat darajasi kuchayish tartibida joylashgan. Kutilmagan holatga duch kelgan lirik qahramon tasviri aks etgan.” Til tishlamoq”, “mum bo‘lmoq” iboralari gapira olmay jim qolish ma’nosini ham bildiradi.

O‘zbek xalqi juda ko‘p ijobiy sifatlarga ega xalq.; tanti, saxiy, olijanob, oriyatli va hokazo. Shoir noyob so‘z topilmalarini topishga nihoyatda usta. Bu she’rning “Bug‘doys o‘z” deb nomlanishida ham ko‘rinib turibdi:

*Tuproqdek **hokisor, saxiy, tanti zot,***

Ushbu kun valiylar alqab turibdi.

Oriyat, hamiyat, lafz va e’tiqod

Sening timsolingda yashab yuribdi.(19- bet)

She’rda **hokisor, saxiy, tanti** sifatlari belgining kuchayishini ifodalaydi. Saxiylik belgisida ko‘ra ham tantilik kuchli darajani ifodalaydi.

Navbatdagi she’rda vaqtini ifodalovchi so‘zlar kun- hafta- oy-yil kuchayib boorish tartibida keltirilgan. “Izsiz ketdi” she’rida:

Bu yo‘l menga sayr edi, sayil edi,

*Sevgisiz **kun – hafta edi, oy – yil edi.***

Men qizlarni aldashni ko‘p istamasdim,

Qizlar o‘zi aldanishga moyil edi.

Oshiq yigit holati nihoyatda samimiy. She’rda sevgini qadriga yetmay aldashga moyil qizlarni qoralangani aks etib turadi. Lirik qahramon sevgisiz kunn haftaga, oyni yilga teng ekanligini aks ettiradi.

Shoирning “Ajoyib qiz haqida hikoya” she’rida **erkalardi- suyardi –o‘oib-o‘pib qo‘yardi** fe’llari harakat va ruhiy holatni kuchayib borish tarzida keltirilgan,

Kimdir mening o‘g‘limni

Erkalardi, suyardi.

Mittigina qo 'lini

O 'pib-o 'pib qo 'yardi. (113- bet)

Iqbol Mirzoning “Singlimga” she’rida singlisiga dalada qanchalik zo‘r ishlaganligini maqtanmoqchi bo‘lgan aka portreti bor. ***Sho‘x –urushqoq – bezori*** sifatlari belgining kuchayib borish tartibida graduonimiyani hosil qilgan.

Sho‘x edim, urushqoq, bezori edim,

Haydalgan paykallar tayyor jangmaydon.

Qahramonligimni sen ko 'rsang derdim,

Maqtangim kelardi senga, singiljon.

Xullas, Iqbol Mirzo she’riyatida graduonimiya hodisasidan mahorat bilan foydalangan. Belgi, holat, payt va harakatning ba’zan kuchayib, ba’zan kamayib borish tartibidagi graduonimiya hodisasidan ham ustalik bilan qo‘llagan. Shuning uchun hamm shoir she’rlari o‘zining betakrorligi, yuksak notalariga egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent. 1974.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O,,qituvchi”, 2001. – 556 b
3. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas. Toshkent. G‘afur G‘ulom. 2018.
4. IqbolMirzo. Ko‘nglingda nimabor, bilmayman. – Toshkent: Sharq, 2020
5. Iqbol Mirzo. Ko‘zlaringga termulsaydim. Toshkent. Sharq -2020.
6. Iqbol Mirzo . Agar jannat ko ‘kda bo‘lsa .. Toshkent. Sharq-2018.
7. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas. – Toshkent: “Istiqlol”, 2005. – B. 27.
8. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. –